



## SOME FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF SCIENCE IN UZBEKISTAN IN THE 1930S

**Zokhidjon Isomiddinov**

*Director of the 2nd IDUM*

*Baghdad District, Fergana Region*

*Fergana, Uzbekistan*

*E-mail: [isomiddinovzohidjon221@gmail.com](mailto:isomiddinovzohidjon221@gmail.com)*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** repression, terror, science and knowledge, research institutes, universities, mining, soil science, agriculture, crowds, graduate students, police, karakul breeding.

**Received:** 24.02.25

**Accepted:** 26.02.25

**Published:** 28.02.25

**Abstract:** The article analyzes the development of science in Uzbekistan in the 1930s and its development based on the new Soviet ideology, existing problems and achievements. It describes in detail the formation of scientific life in the country, the formation of the Republican Committee on Science, the emergence and beginning of the activities of research institutes in all areas, the emergence of major scientists in these areas, the opening of higher education institutions and their focus on science.

## XX ASRNING 30-YILLARIDA O'ZABEKISTONDA ILM-FAN TARAQQIYOTINING AYRIM XUSUSIYATLARI

**Zohidjon Isomiddinov**

*2-IDUM direktori*

*Farg'onalar viloyati Bag'dod tumani*

*Farg'onalar, O'zbekiston*

*E-mail: [isomiddinovzohidjon221@gmail.com](mailto:isomiddinovzohidjon221@gmail.com)*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** qatag'on, terror, ilm va fan, ilmiy tekshirish institutlari, oliygochlari, konchilik, tuproqshunoslik, qishloq xo'jaligi, olomlar, aspirantlar, miloratsiya, qorako'lchilik.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada XX asrning 30 yillarida O'zbekistonda ilm-fan taraqqiyoti va yangi sovetlar mafkurasi asosida uning rivojlanishi, mavjud muammolar hamda yutuyqlar tahlil etilgan. Shuningdek, mamlakatda ilmiy hayotning yo'lga qo'yilishi, Respublika Fanlar qo'mitasining tuzulishi, barcha sohalarda ilmiy tekshirish institutlarining yuzaga kelishi va dastlabki faoliyatları, bu sohalarda katta olimlarning

yetishib chiqishi, oliv ta'lim muassasalarining ochilishi hamda ularning ham ilmga yo'naltirilishi batafsil olib berilgan.

## НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ НАУКИ В УЗБЕКИСТАНЕ В 1930-Е ГОДЫ

**Зохиджон Исомиддинов**

*Директор 2-го IDUM*

*Багдадский район, Ферганская область*

*Фергана, Узбекистан*

*E-mail: [isomiddinovzohidjon221@gmail.com](mailto:isomiddinovzohidjon221@gmail.com)*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** репрессии, террор, наука и знания, научно-исследовательские институты, университеты, горное дело, почвоведение, сельское хозяйство, толпы, аспиранты, милиция, каракулеводство.

**Аннотация:** В статье анализируется развитие науки в Узбекистане в 1930-е годы и ее развитие на основе новой советской идеологии, существующие проблемы и достижения. Подробно описывается становление научной жизни в стране, образование Республиканского комитета по науке, возникновение и начало деятельности научно-исследовательских институтов по всем направлениям, появление крупных ученых в этих направлениях, открытие высших учебных заведений и их ориентация на науку.

XX asrning 20-30-yillaridagi O'zbekistonning ijtimoiy-madaniy rivojlanishi ilm-fan va ilmiy kadrlarni tayyorlash muammolari bilan chambarchas bog'liq bo'ldi. Ularni hal etish sovet mustabid boshqaruvi tizimi hukmronlik qilgan ziddiyatli og'ir bir sharoitda kechdi. Qatag'onlar va siyosiy terrorning kuchayishi mamlakat ilm-fanining rivojiga sun'iy to'siqlar uyg'otgan. Bir tomonidan, respublikada ilmiy salohiyatning muayyan darajada o'sishi ko'zga tashlanib, ilmiy xodimlarning soni va tadqiqotlar yo'nalishlari ortgan bo'lsa, ikkichi tomonidan, boshqaruvning buyruqbozlik usullari va taniqli olimlarning ko'plab qamoqqa olinishi ilmiy ijod erkinligini bo'g'ib qo'ygan hamda uning umumjahon tamaddudi yo'lidan borishiga imkon bermagan.

Ilmiy-tadqiqot muassasalarining ishini uyg'unlashtirish, kadrlar salohiyatini mustahkamlash maqsadida 1932-yil oktyabrida O'zbekiston Sovetlari MIQ huzurida Respublika Fanlar qo'mitasi tashkil etildi. Bu davrda respublikada 35 ta tarmoq institutlari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ularda 1800 dan ortiq ilmiy xodim tadqiqot olib borayotgan edi[1]. Qo'mita huzurida Til va adabiyot ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent astronomiya rasadxonasi, geliotexnika laboratoriysi mavjud edi. Keyinroq esa geologiya instituti va boshqa institutlar tashkil etilgan[2]. Taniqli olim Otajon Hoshimov Fanlar Qo'mitasining raisi etib tayinlandi. Ayni vaqtda u Til va adabiyot institutiga rahbarlik ham qildi, falsafa, pedagogika, o'zbek adabiyoti,

folklor va ona tili bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib bordi.

Ayni vaqtida, tarix fani sopesida yetuk mutaxassis pedagog olimlarini yetishtirish ham fanni rivojlantirish yo‘nalishidagi vazifalardan biriga aylangan. Chunki, tarixini bilish, eng avvalo, hozirgacha yo‘l qo‘yilgan xatolarni takrorlamaslik va aksincha ulardan to‘g‘ri xulosalar chiqarishni zarur bo‘lgan.

Shu maqsadda hukumat tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilib, aynan shu ilmning rivojlantirish yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan, 1934-yil 16-mayda SSSR XKS ning “SSSR maktablarida fuqarolar tarixini o‘qitish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan. Shuningdek, 1935-yil O‘rta Osiyo Davlat Universiteti tarkibida to‘la ma’noda haqiqiy oliy ma’lumotli yetuk tarixchi mutaxassislar tayyorlaydigan mustaqil tarix fakulteti tashkil etilib, dastlabki oyda 79 ta talaba qabul qilgan.

XX asrning 20-30-yillarda O‘zbekiston olimlari qishloq xo‘jalik ekinlari va tuproq fitogelmintlarini o‘rganishga kirishdilar. Ular paxta ekiladigan yerlarda ko‘payadigan nematod faunasining majmuini tadqiq etdilar. O‘sha davrda O‘zbekistonda tuproqshunoslik sohasida ikki yo‘nalish: tuproq-meliorativ va agrotuproq-agrokimyo yo‘nalishlari vujudga keldi. Birinchi, yo‘nalish bo‘yicha irrigatsiyaga ixtisoslashgan loyihalash institutlarida, ikkinchi yo‘nalish bo‘yicha esa paxtachilik sohasidagi ilmiy tadqiqot institutlarida izlanishlar olib borilgan.

Mazkur vaqtda tuproqshunoslik va melioratsiya muammolarini Suv xo‘jaligi tajriba-tadqiqot instituti va SoyuzNIXI tashkilotida faoliyat olib borayotgan olimlar tadqiq etgan. Asosiy irrigatsiya tizimlarida suvdan qanday foydalanayotganligi yuzasidan ekspeditsiyalar tashkil etilib, sug‘orish tizimlarini qayta tuzish va ulardan foydalanish asoslarini yaratishga alohida e’tibor berilgan hamda yerning sho‘rlanishi, botqoqlashuviga qarshi kurashish uchun agrotexnika va melioratsiya usullari yaratilgan.

Universitetining tuproqshunos olimlari ham O‘rta Osiyo tuproqlarini o‘rganish, yem-xashakni ko‘paytirish va boshqa qishloq xo‘jaligi muammolari yuzasidan katta ilmiy izlanishlar olib borgan.

Hukumatning topshirig‘iga binoan O‘rta Osiyo Davlat universitetida Pomir tog‘ini har tomonlama o‘rganish boshlanib, 1933 -yildan e’tiboran u yerga muntazam ekspeditsiyalar uyushtirilib, tajriba va biologik stansiya doimiy faoliyat olib borgan. Universitetni tugatgan olimlardan T.Z.Zohidov Qizilqum cho‘li hayvonotini o‘rganishda faol ishtirop etgan bo‘lsa, N.L.Korjenevskiy esa O‘rta Osiyo muzliklari va suv resurlarini tadqiq qilish bilan shug‘ullangan. Nafaqat ushbu oliygoҳ balki, respublikadagi boshqa oliy o‘quv yurtlarining kata olimlar guruhi ham samarali ilmiy ishlar olib borgan.

Botanika institutida pillachilikka oid tadqiqotlarda xorijiy tajribalardan foydalanishga katta

e'tibor berilib, pillachilik ekologiyasi va ipak qurtining fiziologiyasini o'rganilgan hamda O'rta Osiyo ipak qurtining yangi avlodlari, gibridlarini, tut daraxtining yuqori sifatli barg beradigan navlarini yaratish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan.

Bu vaqtida barcha sohalar singari chorvachilikka ham alohida ahamiyat qaratilib, bu borada sovetlarning buyruqlari asosida samarali ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, 1930-yilda qorako'chilik ilmiy tadqiqot instituti, 1932-yilda otchilik va tuyachilik bo'yicha O'rta Osiyo zonal tajriba stansiyasi, 1933-yilda chorvachilik tajriba stansiyasi asosida O'zbekiston chorvachilik ilmiy-tadqiqot institutining tashkil etilib zootexnika sohasidagi ilmiy izlanishlar avj oldirib yuborilgan.

1934-yilda Turkiston veterinariya-bakteriologiya laboratoriysi asosida tashkil etilgan O'zbekiston veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti olimlari chorva mollari kasalliklarining oldini olish va davolashning ilmiy asoslangan usullarini ishlab chiqqan. Bu esa chorvachilik xo'jaliklarida ommaviy yuqumli kasalliklarni bartaraf etish imkonini berib, sohaning mamlakat bo'ylab keng rivojlanishiga xizmat qilgan.

Qishloq xo'jalik fanlarida olimlar qishloq xo'jaligi ehtiyojlari va talablariga mos tadqiqotlar olib borib, tarmoqni mexanizatsiyalashning nazariy asoslari ishlab chiqqan va ayni vaqtida davlat texnikasining dastlabki tajriba namunasi – g'o'zapoya yig'ish mashinasi, ko'sak chivish mashinasi, seyalka, kultivator kabi mexanizmlar sinovdan o'tkazilgan.

Kon sanoatini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar va geologiya-qidiruv ishlari shubhasiz, ilm, fanda yangi yo'naliш bo'lган. Ammo, ularni sovet hukumati o'z maqsadlariga muvofiq tashkil etishga intilib, undan katta foyda olishga intilgan. Masalan, 1932 -yildagi VKP (b) XVII konferensiyasi qarorida ochiq-oydin O'zbekistonda faol kon-qidiruv ishlarini tashkil etishning asosiy vazifasi "umum-ittifoqni sanoatlashirish uchun zarur bo'lgan qimmatbaho rangli metallarni chetdan keltirishdan voz kechish imkoniyati"ni yaratishdan iboratdir, deb ko'rsatib o'tilgan[3].

Respublikada yirik rux, qo'rg'oshin, oltingugurt, mis, va boshqa foydali qazilmali konlarining aniqlanishi markaziy rahbariyatga "umumittifoq mehnat taqsimoti"da O'zbekistonning "sotsialistik ixtisoslashuvi"ni jiddiy ravishda kengaytirish imkonini bergen. Xususan, respublika rangli metallar ishlab chiqarish bo'yicha ittifoq ahamiyatiga ega bo'lган baza deb belgilangan va natijada 1935 -yildan volfram, molibden va boshqa ma'danlarni qazib olish yo'lga qu-yilgan. O'zbekistonning "umumittifoq ixtisoslashuvi"dagи ahamiyati ortib borayotganini hisobga olib va imperiyacha tafakkur an'analaridan kelib chiqib, markaziy hukumat respublikaning butun majmuini nazorat qilishni amalda o'z qo'liga olgan. XX asrning

30-yillarning boshlaridayoq sanoat korxonalarining mansublik: ittifoqqa bo‘ysunuvchi korxonalar – 14,5 %ni, mahalliy korxonalar – 3,8% ni tashkil etgan[4].

Lekin shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, o‘rganilayotgan davrida ilm-fan rivojining turli sohalarida erishilayotgan yutuqlar bilan ayni vaqtida salbiy holatlar loqaydliklar va davlat mablag‘larini bekorga sovurish holatlari ham kuzatilgan.

Respublikadagi qator ilmiy-tadqiqot institutlariga bir markazdan turib rahbarlik qilish maqsadida O‘zbekiston Sovetlari MIQ qoshida fanlar qo‘mitasi tuzilgan. Bu qo‘mita 1934-yilning 1-iyunidan boshlab O‘zbekiston XKS ixtiyoriga berilgan. Fan qo‘mitasi ilmiy-tadqiqot ishlarini rejalashtirilgan asosda rivojlantirishni o‘z qo‘liga olib, respublika olimlari Qishloq xo‘jaligini ilmiy tarmoqlarini ilmiy asosda rivojlantirishni boshlab yuborgan. Noyob va rangli metallar, polimerlarni qidirib topish, ularni yo‘lga qo‘yishning asoslariga e’tibor kuchaytirilgan.

Shuni aytib o‘ish joizki, ushbu vaqtida barcha ilmiy tadqiqot maskanlari o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlariga erishmagan, ma’suliyatsizlik va e’tiborsizlik qilib, davlat tomonidan ajratilgan mablag‘larni bekorga sovurgan. Masalan, 1930-yilda tashkil etilgan O‘zbekiston Sanoat-iqtisod ilmiy tadqiqot oliygohi ishlab chiqarish kuchlarini o‘rganishi, mahalliy sanoatning dolzarb muammolarini ilmiy jihatdan ochib berishi kerak bo‘lgani holda bu ishlarni bajarmagan[5]. Yoki O‘rta Osiyo suv xo‘jaligi ilmiy-tadqiqot oliygohi 1933-36 -yillarida suv xo‘jaligini rivojlantirish borasida birorta ham ilmiy mahsulot bermagan holda oliygohning shu - yillardagi ilmiy-sarf-xarajatlari 8 mln. so‘mni tashkil etgan.

Shuningdek, 1934-yil 23-mayda VKP (b) MQ va SSSR XKSning “Fuqorolar tarixini o‘qitish” haqidagi qarori va “VKP (b) tarixi qisqacha kursi”ning chop etilishi natijasida oldingi davr adabiyotlarida uchraydigan munozaralar o‘rnini siyosiy muxolifatlarni va rasmiy qarashlarga ozgina bo‘lsada mos kelmaydigan fikrlarni qattiq qoralash, ularga turli xildagi yorliqlarni yopishtirish avj olib ketgan.

O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy tarixini o‘rganishda 20-yillarning oxirigacha bo‘lgan davr eng sermahsul bo‘lib, undan keyingi -yillarda ayniqsa, 30-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab tadqiqotlar soni keskin qisqarib ketgan. Qator ilmiy masalalarining o‘rganilishi 30-yillarga kelib to‘xtab qolgan. Buning sababi totalitar rejim va uning g‘oyalari davlat jamiyat fanni boshqarishda ma’muriy buyruqbozlikning shakllanib qaror topishida edi.

O‘zbekistonning iqtisodiy va ishlab chiqarish makonini markazning o‘z ota meros mulkiga aylantirilishida byudjet siyosati ta’sirchan vosita bo‘ldi. Ittifoq rahbariyati moliyaviy mablag‘larning yakkayu-yagona tasarrufchisi bo‘lib, faqat kommunistik monopolianing ehtiyojlariga xizmat qiladigan tarmoqlargagina zarur hajmda mablag‘lar ajratgan. Masalan, 30-yillarda asosan, paxtachilik, neft, kimyo, qazilma sanoatiga, rangli metallurgiyaga katta sarmoya

ajratilgan. Respublika uchun o‘ta muhim bo‘lgan mashinasozlik, yengil sanoat, qishloq xo‘jaligi infrastrukturasini rivojlantirishga ajratilgan sarmoyalar umumsarmoyaning atigi 2,7% tashkil etgan[6]. Bu esa O‘zbekiston aholisining sotsial-demografik holati va madaniy ehtiyojlarini hisobga olmaslik oqibati edi.

O‘zbekistonning suv resurslarini o‘zlashtirish yuzasidan yirik gidrogeologik va muhandislik-geologik tadqiqotlari ham olib borildi. Gidrogeolog olimlar va irrigatorlar magistral kanal va suv omborlari barpo etishni asoslab berdilar. Natijada 1939-1940-yillarda 32 kilometrlik Lag‘on kanali, 250 kilometrlik Katta Farg‘ona kanali, 162 kilometrlik Shimoliy Farg‘ona kanali, 108 kilometrlik Janubiy Farg‘ona kanali qurib bitkazildi[7]. Shuningdek, 662 mln. kub metr suv sig‘imiga ega bo‘lgan Kattaqo‘rg‘on suv ombori qurilishi boshlangan. Shuningdek, Qizilqum sahrosining cho‘l-yaylov hududlari gidrogeologik tasvirga tushirilib, uning ilmiy jihatdan o‘rganish boshlangan.

O‘zbekistonda o‘tkazilgan neft va gaz geologiyasi sohasidagi tadqiqotlar tufayli 30-yillardayoq bir qator releflearning geologik xaritalari tuzilgan va neft-gaz konlari istiqbollari yuzasidan dastlabki mintaqaviy ma’lumotlar aniqlangan. 1934-yilda O‘zbekistonning janubiy mintaqalarida xususan, Surxondaryoda yangi neft-gaz konlari topilib, foydalanishga topshirilgan. Shundan so‘ng yana bir qator ilmiy izlanishlar olib borilib, 1935-1939-yillar davomida Uchqizil, Ko‘kaydi va Lalmikor konlari aniqlangan. Buxoro viloyatining bepoyon hududlarida amalga oshirilgan neft qidirish ishlari bu yerlarni istiqbolli neft-gaz konlari bo‘lishiga zamin yaratgan.

O‘zbekistonning iqlim xususiyatlari sanoat va maishiy xizmat ko‘rsatish sohasi ehtiyojlar uchun quyosh energiyasidan foydalanishning boy imkoniyatlariga egaligi bu sohada ham katta ilmiy izlanishlarni talab qilgan. Mazkur yo‘nalishda tadqiqot olib borish uchun 1931-yilda Gidrometeorologiya instituti tashkil etilgan. Unda issiqlik sig‘imini o‘rganish yuzasidan keng eksperimental tadqiqotlar, O‘zbekistondagi turli tuproqlarning issiqlik o‘tkazuvchanligi yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Quyosh energiyasidan harakatga keladigan va suvni chuchuklashtirish uchun mo‘ljallangan regenerativ batareyalarning hisob-kitoblari amalga oshirilgan.

Toshkent Astronomiya observatoriyasida 1932-yilda quyosh xizmati bo‘linmasi tashkil etilib, u quyoshda sodir bo‘ladigan hodisalarni va ularning yerga ta’sirini o‘rganish bilan shug‘ullangan. 1933-yildan observatoriyaning graviometriya sohasida olib boradigan ishlarining qayta tiklanishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Graviometriya bilan jihozlangan ekspeditsiyalar O‘rta Osiyoning turli tumanlarida ish olib borib, 1934-yilda 55 ta graviometrik punktlarni aniqlagan.

Toshkent observatoriyasidagi vaqt laboratoriysi vaqtini aniqlash, uning saqlanishi va

maxsus radiosignalalar berish vositasida taqsimlanishini aniqlash bilan shug‘ullangan. Olingen natijalardan o‘sha vaqtdagi butun ittifoq va xalqaro vaqt etaloni – o‘rtacha quyosh sekundini keltirib chiqarish uchun foydalanilgan.

1940-yilda O‘zFA tashkil etilgandan keyin uning tarkibida Respublika Fanlar Qo‘mitasining geliolaboratoriysi bazasida fizika-texnika laboratoriysi tashkil etilgan. U elektronika sohasidagi tadqiqotlarga asos solib, tadqiqotlar natijasida muayyan moddiy-texnik baza yaratilgan, kadrlar tayyorlanib, tadqiqotlarning mavzulari shakllangan. Ayrim ilmiy xodimlarning urushga safarbar etilishi munosabati bilan ishlarning vaqtincha to‘xtatib qo‘yilishiga qaramay, elektronika sohasidagi tadqiqotlar davom ettirilgan[8].

30-yillardan e’tiboran molekulyar fizika, optika, nurlanish, issiqlik almashinishi, yarim o‘tkazgichlar fizikasi sohasidagi tadqiqotlar analitik mexanika, elsatiklik nazariyasi bo‘yicha ilk ilmiy tadqiqotlar yuzaga keldi. Shuningdek, Geometriya sohasidagi tadqiqotlar esa 3 o‘lchovli yevklid fazosi sharli kongruensiyalari va tarmoqlari metrik nazariyasiga taalluqli edi.

O‘zbek kimyogarlari fizik kimyo, kolloid kimyo, anorganik kimyo, organik kimyo, analitik kimyo sohalarida samarali tadqiqot olib borgan. Ammiakni sintez qilish, chigitdan yog‘ olish, o‘simgiliklardan dorivor va hushbo‘y moddalar ishlab chiqarish, yog‘-moy sanoatida mahalliy mineral xom ashyodan foydalanish, tabiiy va sintetik kolloid tizimlarni tadqiq qilish, to‘yingan eritmalarining xossalari o‘rganish bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. O‘simgiliklar kimyosini o‘rganishning muhim yo‘nalishi alkalodli moddalarni o‘rganishdan iborat bo‘ldi. Bu - yillarda O‘zbekiston kimyo fanini rivojlantirish sohasida O.S.Sodiqov, S.Yu.Yunusov, Sh.T.Tolibov, A.Sh.Shamsiev, D.V.Alekseev, B.R.Zaprometov, K.S.Ahmedov, Ye.I.Pozner, K.A.Asomov, D.Drekunsksaya, M.K.Fayziev, I.S.Kansepolsiky, F.H.Tojiev, I.P.Sukervanik kabi yirik olimlar samarali mehnat qilgan.

O‘zbekiston hayvonot va o‘simgiliklar dunyosini o‘rganish sohasida olimlardan A.T.To‘laganov, Q.Z.Zokirov, A.K.Qosimovlar katta tadqiqot ishlarini olib borib, paxta maydonlari, tog‘oldi cho‘llari, daryo va ko‘llar, vodiy hamda cho‘llarga ko‘plab ekspeditsiyalar uyuştirdilar. Shu bilan birga qishloq xo‘jalik zararkunandalariga qarshi kurash olib borishda o‘simgiliklardan foydalanish usullarini aniqladilar[9].

Tibbiyot faniga oid tadqiqotlar o‘tkazish uchun respublikada bir qator ilmiy dargohlar vujudga keldi. Masalan, 1930-yilda Samarqand Tibbiyot instituti, 1931-yilda respublika onkologiya dispanseri va klinikasi, 1932-yilda tibbiyot xodimlari malakasini oshirish instituti, 1932-yilda Venerologiya va dermatologiya instituti, 1933-yilda Ortopediya, travmatologiya va tiklash jarrohligi instituti, 1935 -yilda Sil kasalliklari instituti, 1935-yilda Sanitariya va gigiena instituti, 1937-yilda Toshkent Farmasevtika instituti tashkil etilib, faoliyat yo‘lga qo‘yilgan.

Oliy tibbiyot muassasalari, shuningdek, ilmiy-tadqiqot institutlari bazasida tibbiyot sohasidagi ilmiy-pedagog xodimlarning katta otryadi vujudga kelgan. Bu xodimlar faqat yosh mutaxassislar tayyorlashni amalga oshirib qolmasdan, shu bilan birga, tibbiyot fanini rivojlantirishda ham ishtirok etgan. Bu esa, shubhasiz, respublikada tibbiy xizmat ko'rsatishni yaxshilashga samarali ta'sir ko'rsatgan.

Mazkur davrda bir qator tibbiyot olimlari o'z sohalarida samarali ilmiy-tadqiqot ishlari olib borib, mahalliy kasalliklarini o'rgangan va ularni davolash, oldini olish, epidemiologik, sil, bezgak, bo'qoq kasalliklariga qarshi kurash uslubiyotini ishlab chiqishga muvoffaq bo'lgan. Buning natijasi o'laroq, 1939 -yilning o'zida vaqtli matbuotda tibbiyot sohasidagi tadqotchilarining 1500 dan ortiq maqolalari bosilib chiqqan[10].

Bezgakka qarshi samarali kurash olib borish mazkur vaqtida respublika tibbiyotida eng muhim yechilishi lozim bo'lgan muammolaridan biri bo'lib, bu borada L.M.Isaev va N.I.Latishevlar olib borgan ilmiz izlanishlari muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Shuningdek, olimlar bo'qoq kasalligi va uning oldini olish va davolash bo'yicha ham samarali ilmiy izlanishlar olib borib, kata yutuqlarga erishgan. Bu esa o'z navbatida sog'lijni saqlash tashkilotlariga mazkur kasallikka barham berish imkonini bergen.

Shu bilan birga olimlar virusli gepatitga qarshi kurash masalalarini ishlab chiqishga muayyan hissa qo'shib, bemorlarning kompleks terapeyasida bir qator vitamin va mikroelementlarni qo'llashning patogenetik asoslarini ishlab chiqishib, ularni qo'llashning miqdori hamda sxemalarini aniqlashdi.

Shunigdek, bir guruh olimlar jamoasi traxoma va boshqa ko'z kasalliklarini o'rganish hamda ularga qarshi kurashda kata yutuqlarga erishib, klinikalar va ilmiy tadqiqot muassasalari ginekologik kasalliklarni davolashning yangi usullari ishlab chiqilgan.

Xulosa qilib aytganda XX asrning 30-yillarida O'zbekistonda asta-sekin ilm-fan taraqqiy etib, yurt foydasi uchun xizmat qilgan. Garchi, sovetlar o'z mafkurasi ta'sirida saqlashga urinsa ham fan jamiyat va davlatga xizmat qiladigan mexanizmga aylanib borgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar va manabalar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Milliy arxivi, 88-jamg'arma, 9-ro'yxat, 352-ish, 54-varaq.
2. Ўзбекистон ССР хукуматининг V Бутунўзбек Советлар қурултойига ҳисботи. (1931-1934 йиллар). –Т.: 1935, 80-81 бетлар.
3. Осуществление ленинских идей социалистического интернационализма в Узбекистане. – Т.: Фан, 1984. - С.78.
4. Ходжаев Ф. Избранные труды. В 3-х томах. Т.2. – Т.: 1972. – С.242.
5. O'zbekiston Milliy arxivi, 837-jamg'arma, 13-ro'yxat, 640-ish, 7-8-varaqlar.

6. Достижения Советской власти за 40 лет в цифрах. Стат. сб. – М.: 1957. – С. 17-19.
7. Ходжаев Ф. Избранные труды. В 3-х томах. Т.2. – Т.; 1972. – с.242.
8. Академия Наук Узбекистана 50 лет. – Т.: 1993. – С.9-10.
9. Рачинская Е.В. Роль узбекской интеллигенции в подготовке кадров. – Т.: 1939. – С. 184-185.